

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan .....	6
<b>Raekwon Chung</b> , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari .....	8
<b>Nodira Shotursunova</b> , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari .....	12
<b>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</b> , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
<b>Egamov Zoxid Baxtiyarovich</b> , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development .....	26
<b>Muratova Muzayana</b> , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
<b>Кучаров Аброр Сабиржанович</b> , профессор; <b>Динара Нурмамад кизи Ишманова</b> , доцент; <b>Тю Константин Геннадьевич</b> , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy .....	39
<b>Nargiza Samandarova Muxammadovna</b> , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
<b>Ikromov Sayidolim</b> , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
<b>Rasulova Nigora Yusupovna</b> , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati .....	58
<b>Jontemirova Iroda Ikrom qizi</b> , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni .....	61
<b>Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna</b> , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
<b>Raxmanov M. A.</b> , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
<b>Tukhtaeva Shakhnoza</b> , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
<b>Bauyeddinov Majit Janizaqovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli</b> , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash .....	79
<b>Berkinov Bozorboy</b> , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; <b>Qulmatova Sayyora Safarovna</b> , PhD; <b>Ruxsatova Rushana O'ktamovna</b> , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari .....	86
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
<b>G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich</b> , i. f. d., professor; <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b> , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
<b>Ortiqov Uyg'un Davlatovich</b> , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания .....	115
<b>Марданова Барно Асатуллоевна</b> , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan .....	119
<b>Aziz Zikriyoev</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
<b>Kambarova Sh. M.</b> i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
<b>Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna</b> , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari .....	139
<b>Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich</b> , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; <b>Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna</b> , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	147
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili .....	151
<b>Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich</b> , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli .....	158
<b>Xudayarova Maftuna Shavkatovna</b> , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi .....	164
<b>Karimova Shirin Zoxid qizi</b> , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash .....	168
<b>Shakirova Nigora Axralovna</b> , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida .....	172
<b>Raximbayev Akmal Azatboyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
<b>Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna</b> , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati .....	182
<b>Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
<b>Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
<b>Abduturapova Dildora Farxodjon qizi</b> , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili .....	205
<b>Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich</b> , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
<b>Tashmuxamedova Yayra</b> , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
<b>Rakhimova Gulnoza</b> , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
<b>Искендер Аккуралай Абдиуалиевна</b> , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
<b>Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna</b> , kafedra dotsenti; <b>Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi</b>	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	228
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi .....	233
<b>Рашидов Рахимжон Исандарович</b> , в.и.о доцента; <b>Якубова Шамшинур Шухратовна</b> , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni .....	240
<b>Nomozova Qumri Isoyevna</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b> , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni .....	255
<b>Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
<b>Do'sanov Doniyor</b> , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
<b>N. N. Ro'ziyev</b>	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
<b>Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
<b>Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD</b>	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish .....	288
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
<b>M. A. Saparova, talaba</b>	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
<b>Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent</b>	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development .....	304
<b>Vafoyeva Dilafruz, Teacher</b>	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari .....	311
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD</b>	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili .....	316
<b>Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant</b>	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari .....	323
<b>Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant</b>	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba .....	327
<b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant</b>	
Optimizatsii operacionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov .....	334
<b>Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry</b>	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana .....	341
<b>Fattahova Munisa Abduxamitovna</b>	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri .....	349
<b>Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant</b>	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег .....	354
<b>Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)</b>	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
<b>Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher</b>	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
<b>Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti</b>	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
<b>D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent</b>	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
<b>Shodmonkulova Shahlo, PhD student</b>	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsiyalasoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi .....	384
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
<b>Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi</b>	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy .....	398
<b>Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher</b>	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari .....	406
<b>Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)</b>	



# О'zbekistonda ekSPORTNI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI

**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich**  
ISFT Instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori professor



**Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**  
ISFT Instituti katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori  
(PhD)



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish subsidiyalash mexanizmlarini takomil-lashtirishga qaratilagn samarali tadbirlarni tashkil etishga xizmat qiluvchi Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda O'zek-simbank va O'zagroeksportbank faoliyatini tashkil etishga qaratilgan ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport faoliyati, eksport kreditlari, eksport subsidiyalari, eksport import banklari, qishloq xo'jaligi sohasi eksporti, yengil sanoat sohasi eksporti, eksportni moliyalashtirish mexanizmlari , eksport faoliyatida xorij tajribasi.

## ДАЛЬНЕЙШЕЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ЭКСПОРТНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В данной статье представлена информация, направленная на совершенствование механизмов субсидирования финансирования экспортной деятельности в Узбекистане, а также организации деятельности Агентства по продвижению экспорта и Узэксимбанка и Узагроэкспортбанка, которые служат для организации эффективной деятельности.

**Ключевые слова:** экспортная деятельность, экспортные кредиты, экспортные субсидии, экспортно-импортные банки, экспорт сельскохозяйственного сектора, экспорт легкой промышленности, механизмы финансирования экспорта, зарубежный опыт экспортной деятельности.

## FURTHER DIRECTIONS FOR IMPROVING THE MECHANISM OF EXPORT CREDIT IN UZBEKISTAN

**Abstract:** This article provides information aimed at improving the mechanisms for subsidizing the financing of export activities in Uzbekistan, as well as organizing the activities of the Export Promotion Agency and Uzeximbank and Uzagro-exportbank, which serve to organize effective activities.

**Key words:** export activity, export credits, export subsidies, export-import banks, agricultural sector exports, light industry exports, export financing mechanisms, foreign experience in export activities.



## KIRISH

Mamlakat eksport hajmini oshishi yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga bu esa o'z navbatida moliyalashtirish o'sishga sabab bo'ladi. Eksport faoliyatini turli xil yo'llar bilan davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlari mavjud bo'lib, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra eksportni moliyalashtirish instrumentlari faoliyatini kengaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali erishish mumkin. Iqtisodiy tarqaqqiyotga erisha boshlagan Xitoy va Hindiston kabi davlatlarda eksportni moliyalashtirish, sug'urtalash va subsidiyalashni takomillashtirish orqali mamlakat eksport hajmini oshirishga erishilgan. Eksportni moliyalashtirish asosan Eksimbanklar tomonidan amalga oshirilib rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligidagi Eksimbank institutlari joriy etilgan.

O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish aynan eksport qiluvchilarni kreditlash jarayonida bir muncha salbiy vaziyat mavjud bo'lib, bugungi kunda tijorat banklarida savdo kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va garov ta'minoti miqdorining yuqoriligi hamda kredit shartlarining murakkabligi sababli ko'plab eksport qiluvchi korxona va tashkilotlar uchun eksport faoliyatlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda<sup>1</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eksportni moliyalashtirish va unga moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish avomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan A. I. Priщera, A. O. Petrov, N. N. Shekolinskiy, N. Petrakov<sup>2</sup>, shuningdek xorijiy olim va mutaxassislardan Patrik Messerlin, Xideki Funatsu va A. Karterning<sup>3</sup> bu boradagi ilmiy ishlarini tahlil qildik.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport kreditlarini ajratishning yangi mexanizmini shakllantirish va eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 20-dekabrdagi PQ-4069-son va "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4135-son qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.05.2019-yildagi 373-son qarori ishlab chiqildi, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etildi. Eksportni rag'batlantirish agentligining asosiy vazifalaridan biri tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyaviy resurslar ajratish hamda xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalaridan eksportoldi moliyalashtirish uchun mablag'lar jalb etish ishlarini tashkillashtirish hisoblanadi. Agentlik tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatishning asosiy yo'naliishlari qilib quyidagilar belgilangan; standartlarni joriy qilish va muvofiqlik sertifikatlarini olish, mahalliy mahsulotlar va brendlarni (tovar belgilarini) tashqi bozorlarga olib chiqish maqsadida taqdimotlar va reklama kampaniyalarini o'tkazish, xalqaro tender va tanlovlarda ishtirop etish. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi asosiy vazifalari tahlil qilinsa unda aynan eksport kreditini ajratish instrumenti ko'rinxmaydi. Shuning uchun AQSh, Xitoy, Yaponiya va Rossiya davlatlaridagi kabi aynan faqat eksport qiluvchilarga eksport oldi va eksportdan keyingi faoliyat uchun kreditlarni ajratishni amalga oshiruvchi Eksimbankni tashkil etish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda zarur hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda eksport faoliyatini takomillashtirish maqsadida eksportga ko'rsatilayotgan xizmatlar kengaymoqda. Eksportga moliyaviy xizmat ko'rsatishning samarali ulublaridan biri eksport faoliyatini uchun qisqa muddatli kredit liniyalarini ochish hisoblanadi. Mamlakatimizdagi bir qator banklarda jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki, "Asakabank" aksiyadorlik jamiyati, "Ipak Yo'li" aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki, Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banklarida eksport faoliyatini uchun turli eksport kredit-

1 <https://review.uz/oz/post/eksportni-moliyalashtirish-eksport-oldi-kreditlari-va-eksport-jarayonlarini-sugurtalash> O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi Xalilulloh Hamidov


2 Прищепа А.И., Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. – 2012. – № 2 (34); Петров А.О. Развитие внешнеэкономической деятельности малого и среднего бизнеса в различных странах мира. Научный журнал Донецкого национального университета, 2007; Шеколинский Н.Н. Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата.

3 Patrick Messerlin. Export credit subsidies. Economic Policy. Vol 2, No 4. (Apr 1989) www.jstor.org; Hideki Funatsu. Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance. Vol 53, No 4. (Dec 1986) www.jstor.org; A. Carter. United States Export Subsidies in Wheat: Strategic Trade policy or Expensive Beggar – Thy – Neighbour Tactic? American Journal of Agricultural Economics. Vol 74, No 3. (Aug 1992) www.jstor.org



lari ajratilmogda. Shu bilan birgalikda eksport faoliyatini kompleks sug'urtalash bo'yicha bir nechta sug'urta kompaniyalari tomonidan eksport faoliyatidagi xavf-xatarlar kompleks sug'urtalanmoqda.

O'zbekistonning eksport hajmi statistik tahlillarga ko'ra yildan yilga oshib bormoqda.



**1-rasm:** O'zbekistonda 2018–2021-yillardagi eksport hajmi (mln. AQSh dollar)<sup>4</sup>

Rivojlangan xorijiy davlatlarda eksport faoliyati asosan davlat aralashuvi yordamida kengaygan. Eksport faoliyati uchun moliyaviy va moliyaviy bo'limgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratilgan. Eksport faoliyatini moliyalashtirishga ko'proq urg'u berilgan. Iqtisodiy taraqqiyotga erishgan davlatlarda eksport faoliyatini moliyalashtirish maqsadida Eksimbank institutlari tashkil etilishi va ularning faoliyati turli davrlardan boshlab amalga oshirilib kelayotganligini ko'ramiz.

AQSh da "AQSh Eksim banki" 1934-yilda eksport AQSh ni iqtisodiy tushkunlikdan olib chiqishi maqsadida tashkil etilgan.

AQSh Eksimbanki 2006-yilning o'zida umumiyligi 12,1 milliard AQSh dollarini miqdorida moliyalashtirishni amalga oshirgan, jami moliyalashtirishda kichik biznesning ulushi 26 foizni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda moliyalashtirishning keng qamrovi, jumladan, 2677 ta eksport yetkazib berish va bitimlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash lozim. Eksportni rag'batlantirish va byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi soliq to'lovchining har bir dollari AQSh eksportini yaratishga 61 dollar hissa qo'shganidan dalolat beradi.

Yaponiyada "Yaponiya Eksimbanki" 1951-yilda Yaponiya eksport import banki to'grisidagi qonunga asosan o'rta va uzoq muddatli eksport operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida "mustaqil davlat moliya instituti" sifatida tashkil etilgan.

Dastlab u faqat zavod asbob-uskunalari va og'ir mashinalarni eksport qilish uchun kreditlar bergan va "Yaponiya eksport banki" deb nomlangan. 1952-yildan boshlab uning faoliyati Yaponiya iqtisodiyoti uchun asosiy 10 turdag'i resurslar temir va marganets rudalari, ko'mir, neft va boshqalar importi uchun avans to'lovlari moliyalashtirish, shuningdek, boshqa moliya institutlari tomonidan eksportchilarga berilgan kreditlar bo'yicha kafolatlar berishni o'z ichiga olgan.

Eksimbank kreditlarining yillik hajmi qariyb 15 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, Yaponiya Eksimbankini tashkil etishning asosiy maqsadi Yaponianing tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, Yaponiya iqtisodiyoti uchun global mashinalar, rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, qashshoqlikni kamaytirish, global isishning oldini olish va Yaponiya atrofida xalqaro barqarorlikni ta'minlash kabi keng ko'lamli siyosat masalalarini qamrab oladi.

Germaniyada eksportni moliyalashtirish funksiyalari federal hukumatga (80%) va federal shtatlarga (20%) tegishli bo'lgan Kreditanstalt für Wiederaufbau (KfW) tomonidan amalga oshiriladi. KfW ning maqsadi uzoq muddatli va arzon kreditlar berish orqali kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. KfW shuningdek, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi va shahar infrastrukturini yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.



Rossiyada eksport faoliyatini moliyalashtirish va uni rivojlantirish maqsadida Roseksimbank ("Rossiya eksport-import banki" OAJ) – davlat ixtisoslashtirilgan banki 1994-yilda Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 1993 yil 7-iyuldagagi 633-sonli "Rossiya eksport-importini shakllantirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. "Roseksimbank" faoliyatining asosiy maqsadi eksport operatsiyalarini moliyalashtirish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashda eksport qiluvchilarining ehtiyojlarini maksimal darajada qoplashni ta'minlash uchun Rossiya eksportchilariga moliyaviy va kafolati yordam ko'rsatishdan iborat.

Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi munosabati bilan Roseksimbank AQSh, Kanada, Ukraina va Avstraliya tomonidan iqtisodiy sanksiyalar ostida qolmoqda.

Eksport faoliyati yaxshi rivojlangan davlatlarda an'anaviy bank kreditlaridan tashqari savdoni moliyalashtirishning zamонавиy usullari, jumladan faktoring, forfeiting, ta'minot zanjirini moliyalashtirish metodlari faol qo'llanib kelinmoqda.

Barcha iqtisodiy taraqqiyotga erishgan va erishayotgan davlatlar o'zidagi iqtisodiy sharoitdan shuningdek, dunyodagi tashqi iqtisodiy, siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z ichki iqtisodiy siyosatida eksportni rag'batlantirishning turli metodlarini qo'llayotganligini ko'ramiz.

Eksport faoliyatini moliyalashtirish va turli xil vositalar orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribalaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, eksport faoliyati davlat aralashuvi asosida ko'proq bozor mexanizmlariga tayangan holda rivojlantirilishi mumkin va aynan O'zbekistonda eksportni moliyalashtirishni amalga oshirish instituti sifatida Eksportni rag'batlantirish agentligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan eksport faoliyatini moliyalashtirishni amalga oshirish mexanizmlari tashkil etilgan lekin TIF Milliy bankining bosh maqsadi tijorat ya'ni daromad topish hisoblanadi shuning uchun O'zbekistonda alohi-da maqomga ega bo'lgan "O'zeksimbank"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rghanishlar shuni ko'rsatadiki, eksportni rag'batlantirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi oshadi va mamlakatda bo'sh ish o'rnlari yaratiladi shuningdek eksportga yo'naltirilgan infratuzilma yaratiladi. Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida qulay makroiqtisodiy muhit va ishlab chiqaruvchilar uchun eksportga rag'bat yaratish tizimi shakllanadi. Davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlari davlat darajasida ham hududiy bo'linmalar doirasida ham amalga oshirilishi kerak. Davlat tomonidan turli xil xalqaro fondlardan olinayotgan tashqi qarzning ma'lum qismi albatta eksportga ko'maklashuvchi institutlar tomonidan faqatgina eksport qiluvchilarga yo'naltirilishi zarur.

Hindiston va Xitoy tajribasiga ko'ra yirik eksport qiluvchilar bilan teng holatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ham moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobji ta'sir ko'rsatgan. O'zbekistonda tarmoqlar va sohalar miqyosida eksport qiluvchilar faoliyatini tahviliga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilarni moliyaviy qo'llab quvvatlash mamlakat iqtisodiyoti o'sishi uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. O'zbekistonda 2022-yil yakunlariga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi 1134.3 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 18.5 foizga oshgan<sup>5</sup> ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish imkoniyati mavjud bo'lib buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini amalga oshirish mexenizmlarini takomillashtirish aynan ular uchun qisqa muddatli eksport kreditlarini ajratish amaliyotini yo'lga qo'yish kerak.

O'zbekistonda quritilgan meva mahsulotlarini eksporti uchun past foizdagi qisqa muddatli eksport kreditlarini ajratish mexanizmini yaratish kerak masalan, Janubiy Koreya hukumati o'rtacha har yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishga 25.95 milliard Vonniga tashkil qiluvchi subsidiya ajratadi. Ushbu subsidiyalar mevalar, gullar, sabzavotlar, jenshen va qora mol mahsulotlari tegishli bo'ladi<sup>6</sup>.

Mamlakat eksport hajmini yanada kengaytirish imkoniyati bo'lgan soha va tarmoqlarda ayniqsa yengil sa-noat tekstil mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish o'rta va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekistonda „O'zagroeksport“ bank faoliyatini qayta tashkil etish qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga hududlar doirasida qisqa muddatli past foizli eksport qilinayotgan mahsulot hajmi doirasida 5000 AQSh dollardan 30000 AQSh dollar ni miqdorigacha hajmdagi eksport kreditlari ajartish amaliyotini tashkil qilish orqali eksport tarkibini yanada diversifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'linadi.

5 Manba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2022-yil hisobati.

6 Kihwan K. "The Korean Economy: Past Performance, Current Reforms and Future Prospects" // Korean Development Institute. 2015.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabr karori. "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Прищепа А. И., Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. – 2012. – № 2 (34).с.23–27
3. Шеколинский Н. Н. Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2016.–142с.
4. Петраков Н., О государственной поддержке российского экспорта. М.: ЦЕМИ РАН, 2016. 289с.
5. Kihwan K. "The Korean Economy: Past Performance, Current Reforms and Future Prospects" // Korean Development Institute. 2015.
6. WTO Secretariat, "Trade Policy Review: Singapore", 2018 / URL: [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.